

ASARNING OBRAZLI VA MUSIQIY TAXLILI (FURQATNING “SAYYORA”
MUSADDASIGA T.QODIROVNING IJROSI MISOLIDA)

F. Mo‘ydinov

*O‘zDSMI FMF “Cholg‘u ijrochiligi va
musiqiy nazariy fanlar” kafedrası
o‘qituvchisi*

Furqat ijodida “Sayyora” musaddasi alohida o‘rin tutadi. Asarning musiqiy taxlili borasida Tavakkal Qodirovning ijrosiga tayanamiz. Chunki, ijro hali xanuz shinavandalar qalbidan joy egallagan mukammal asar hisoblanadi.

Asarning o‘lchovi 2/4 shaklida bo‘lib, mumtoz musiqamiz hisoblanmish Maqomlarning “Saraxbor” qismi ham xuddi shu o‘lchovda namoyon bo‘ladi. Farqli tomoni Saraxbordagi ritmning tekis izchilligi mazkur asarning usulida mavjud emas. Fikrimizni musiqiy terminlarga tayanib isbotlaydigan bo‘lsak, ritmning urg‘usi o‘lchovda mavjud 4 ta nimchorak hissaning 1chi va 4 chi hissasiga berilmoqda. (Saraxborda 1chi va 3chi hissa,ya’ni bak-ist-bum-ist)

1-rasm



Soddaroq shaklda esa (*Bak-ist-ist-bum*) usuli ushbu o‘lchovda paydo bo‘lyapti.

2-rasm



Aynan shu o‘lchov va usul mumtoz musiqalarimizdan biri “Cho‘li iroq” asarida uchratish mumkin. Cho‘li iroq asarini o‘lchovi xususida marhum ustozimiz O‘zbekiston xalq xofizi Mahmudjon Tojiboyev “*Karbalo dashtida majolsiz qadam tashlab borayotgan karvon ahlining qadami*”¹² deya ta‘rif qilganlar. Darhaqiqat falsafiy yondashuv jarayonida o‘lchovdagi ritmik izchillikning buzilishini majolsiz kishining poyma-poy qadamiga qiyoslash mumkin. “Sayyora” asariga ushbu usulning tanlanishi ham 2 band

¹² Internet manbaa Youtube

mazmunidagi ovchining tuzog'i bo'ynida bo'lgan o'ljaning qadami singari tasavvur uyg'otadi.

Usuldan so'ng dastlabki mavzuni g'ijjakda ijro etilishida qanday falsafiy mazmuni anglash mumkin?

Bu borada Navoiy asarlarida keltirilgan fikr va mulohazalar bizga katta yordam beradi. Navoiyning ba'zi asarlarida sozlarning ayrim sado berish xususiyatlari ustalik bilan, obrazli qilib chizib berilgan. Nay maftunkor, mayin sado beradi. g'ijjakning sadosi yig'loqi, tanburniki dilkash, ud va chang yurakni ezuvchi, rubob yolboruvchi, qo'biz-roxatbaxsh, qonun bilan chag'onaning sadosi esa faryodu-fig'onga o'xshash yangraydi¹³. Demak, falsafiy jihatdan tushunish mumkinki, dastlabki mavzuning g'ijjakdagi ijrosi, musaddasning har ohirgi ikkita bandida keltirilayotgan mazmun ya'ni, hijron azobida jismi yara, jigar bag'ri sadpora kishining alamli yig'isini aks ettirgan. Kishining alamli yig'isi deb ta'riflashimizga qator sabablar mavjud:

- Yuqorida keltirilgan asosga ko'ra g'ijjakning yig'loqi deya ta'riflanishi va asosiy mazmuni ifodalashi;
- Ohangda ijro etilayotgan pardalarning tabiiy yig'i ko'rinishidagi joylashuvi;
- Tayanch notadan yuqori oktava tayanch notasiga sakrash va pog'onama-pog'ona tushib boruvchi notalar ohangi;

Musiqashunos olim Oqilxon Ibroximovning "Maqom va makon" nomli kitoblarida keltirilishicha, mutaxassislar tabiiy yig'iga xos hususiyatlar qatorida ulardagi g'amnok ohanglarni badixaviylik tarzida erkin bayon etilishi, hamda ohanglarni sirg'anma harakatlarga moyilligi kabi jihatlarni takidlaydilar.¹⁴ Ushbu o'rinda g'ijjakdagi chalingan notalarni esga olaylik. Yuqori tayanch pardadan boshlanib VII-VI-V-IV-III pardalari orqali pastga sirg'anma harakatni amalda ijro etmoqda. (3-rasm) G'ijjak mavzusining tugalida xor jamoasini ijrosi, asarning mavzusi nafaqat mualliflarga balki, butun bir o'zbek xalqining dardi, ichki tug'yonini ifodalagandek go'yo.

3-rasm



Lad haqida: Xalq musiqasida pog'onalarning turlicha diatonik ketma-ketligidagi etti pog'onali ladlar uchraydi. Laddagi pog'onalar ketma-ketligidagi farqlar tovushqatorda katta va kichik sekundalarning joylashish tartibidan kelib chiqqan. Bu bilan xalq musiqasi lادلari tabiiy major va tabiiy minordan farq qiladi, ammo, ularning tonikalari major yoki

¹³ Isxoq Rajabov Maqomlar Toshkent 2006y 26-bet

¹⁴ O Ibroximov. Maqom va makon. Toshkent-1996. 14-15 bet

minor uchtovushliklari boʻlganliklari sababli, ularga - major va minor ladlariga moyil etti pogʻonali diatonik lادلarning alohida turlari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Asarga 2 pogʻonasi pasaytirilgan frigiyladi tanlangan. Mazkur lad xalqona ohanglarimizning asosi hisoblanadi. “Koʻkardi chaman” “Ey dilbari janonim” singari patnisaki ashulalar hamda, “Tong otguncha”, “Naylayin” singari bastakorlik ijodi namunalari ham ushbu lad asosiga qurilgan. Misollarni yana koʻplab keltirish mumkin. Birinchi misraning ijrosi lad oʻrnashgan parda tonikasiga qurilgan boʻlib, misra yakuni qadar seksta intervali oraligʻida shakllanadi. (4 rasm) Tonikaning yana bir nomi tayanch parda deb ataladi. Tayanch pardaning aytim jarayonidagi vazifasi serqirra va muhimdir. Chunonchi aytim kuylovchisi har bir ohang jumlasini tuzishda va uni rivojlantirishda asosiy pardaga tayanib ish tutadi, demakki, ushbu parda tez-tez takrorlanib turiladi. Unga ovozda “suyangan” holda turli (quyi-yuqori) balandlikdagi tovushlarga ohang sakrashlari amalga oshiriladi va yana mazkur pardaga qaytiladi.¹⁵ Ushbu pogʻonaning yana bir hususiyati, ijrochiga ovozni yoʻlga qoʻyib olish imkoniyatini taqdim etadi.

Tayanch parda orqali boshlangan asarlarning boshqa (II-IV-V-VIII pogʻonadan boshlanuvchi) asarlarga nisbatan qulayligi ayni mana shunda.

4 rasm.



*Ol domini boʻynidin, bechora ekan mandek,
Oʻz yorini topmasdan, ovora ekan mandek*

5 rasm

¹⁵ O Ibrohimov. Oʻzbek xalq musiqa ijodi. 1994 y. 13-bet.



Yuqoridagi misralar shakllangan intervalning asosi va cho'qqisi oralig'i bir oktavadan yuqori bo'lganligi bois tarkibli intervallar bilan nisbat beramiz. (*Tonallik hamda A jumlaning 2 taktidagi H notasiga qarang*) Musiqa amaliyotida oddiy intervallardan tashqari, oralig'i oktavadan keng bo'lgan intervallar ham qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng bo'lgan intervallarga tarkibli intervallar deyiladi. Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Har bir tarkibli interval uning tarkibidagi pog'onalar soniga qarab quyidagi mustaqil nomlar bilan ataladi. Nona-9, ya'ni oktava orqali tuzilgan sekunda intervali jumlaning asosi va cho'qqisining oraliq masofasini belgilaydi. Bunday kuy tuzilmaning rivojlanish andozasi Maqomlarimizning “**Dunast**” qismi pardalariga muvofiqdir. Farqli tomoni shundaki, dunasrda mavzu daromad qismining yuqori notalarda ijro etilishidir. Umumiy jihatdan avj tomon harakatlanuvchi mavzu deyish to'g'ri bizningcha.

*Iqboli nichun, bahti ham qora ekan mandek,
Hijron o`qidin jismi ko`p yora ekan mandek,*

6 rasm



Ashulaning avji xususida: Avj bu -ashula va qo'shiqning farqlab turuvchi jihatlardan biridir. Asarning eng yuqori pardalarda ijro etiladigan qismi bo'lib, ushbu qism ijrochining ovoz imkoniyatlarini ochib beruvchi qismdir. Sayyora asari avjining boshlanuvchi qismi yuqori oktavaning tayanch lya pardasidir. Mavzuning rivojlanishi yuqori oktavaning subdominantasi (*re notasi*)ga qadar ko'tarilib so'ng pastga tomon pog'onama-pog'ona harakatni aks etadi. E'tibor bering avjning tugal qismi pastki oktava **RE** notasiga tayanmoqda. Tonallikka nisbatan **kvarta** intervalini xosil qilmoqda. O'zbek xalq cholg'ularining aksariyati (rubob, dutor, ud va hk) ushbu interval asosida sozlanadi. Kvarta hamda kvinta intervali pog'onalari laning asosiy pog'onalari xisoblanadi. Ko'plab o'zbek xalq mumtoz musiqasida ushbu jihatni uchratamiz. "Ushshoq", "Samarqand ushshog'i", "Sodirxon ushshog'i", "Qoshiyosinmu deyin" kabi mumtoz ashulalarni misol qilib olishimiz mumkin. Klassik namunamiz maqomlarda esa mavzuning kvarta, kvinta intervalida rivojlanishi asosan **miyonxat** deb yuritiladi.

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.


Musaddaning 6 misrasi musiqiy tahlilda avjdan keyingi **tushirim** mavzusi pardalariga bog'lanadi. **Tushirim** (yoki Furovard), ya'ni avjdan so'ng ashula kuyining dastlabki tayanch pardasiga qaytib, yakunlanish qismidir.¹⁶ (5 rasm) Ijro shaklan 2-3 misralarning ohangi kabi ijro etiladi.

Bechoraga zulm aylab, qo'l-bo'ynini bog'labsan,
Har sori chekib-sudrab, o'ldirgali chog'labsen,
Ko'ksini jafu birla lola kabi dog'labsen,
Sot menga, agar qasding olg'uvchi so'rog'labsan,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

Musaddaning keying bandi ham huddi dastlabki band singari ijro etiladi. Musiqiy shakl jihatidan qaraydigan bo'lsak, asar **Repriza** shakliga qurilgan. Repriza shakli mavzuning musiqiy asar davomida yana takrorini talab qiladi. Musaddaning dastlabki bandi ijrosi 2-bandda takrorlanadi. Ayni takroriy ijro va mutanosiblik aks etadi. (7 rasm)

7 rasm

¹⁶ Maqom asoslari. O Ibrohimov. Turon iqbol. 2018y. 59-bet



Har qanday musiqiy asarda kompozitsion mutanosiblik bo`lmasa asarning ta`sir kuchi ijobiy bo`lmaydi. Mutanosiblik ayniqsa, ashula matni hamda musiqasi o`rtasida vujudga kelishi lozim. Bunda bastakorning mahorati muhimlik kasb etadi. Shu kabi mutanosiblik mazkur asarda har jihatdan o`z o`rnini topgan.

- Musiqiy harakterning asar matniga mutanosibligi;
- So`zning bo`g`inlari va ritmik izchillikning uyg`unligi;
- Mazmunning rivoji bilan birgalikda ohangning avjga tomon harakati;
- Nazm va musiqa hamohangligidagi ruhiy holatni aks etishi;

Musiqiy asarning insonning kayfiyati, ruhiy holati, ichki hissiyotiga ta`siri haqida bir qancha xulosalar mavjud. Bularni salbiy va ijobiy jihatlariga ko`ra farqlaymiz. Ichki hissiyotlarni yuzaga chiqarish orqali insonga ijobiy psixologik ta`sir kuchini bir qancha xususiyatlari bo`lib, ayni musiqiy asarda ushbulari namoyon bo`lmoqda:

- Shaxsni erkin yashash huquqi;
- Zulm istibdodiga qarshi kurash;
- Ozodlik, erkinlik sari intilish;
- Jabrdiyda kishiga hamdardlik va hkzo;

“Sayyora” asarini diqqat bilan eshitgan inson ichki kechinmalarida ushbu fazilatlar aks etmay qolmaydi.

1. Muydinov, F. (2022). Nay cholg'usini o'zlashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. *Inklyuziv va barqaror ta'lim xalqaro jurnali* , 1 (5), 218–220.
2. *MUSIQIY ASARLARDAGI KATARSISNING MOHIYATI*Текст научной статьи по специальности «Искусствоведение»
3. Fazilkhan Moydinov. (2023). Themes of the Peoples of the East in the Works of World Composers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 13–16.
4. Xakimaxon, I. ., & Fozilxon, M. . (2024). MODEL FOR THE FORMATION OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS BASED ON THE ANALYSIS OF MUSICAL WORKS. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 6, 9–12